



BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA SINFDAN TASHQARI O‘QISH DARSLARINI TASHKIL ETISHGA ZAMONAVIY YONDASHUV

Eshchanova G.O.

Urganch davlat pedagogika instituti dotsenti

Boltayeva M.I.

Urganch davlat pedagogika instituti, 2- bosqich magistranti

Tayanch so‘zlar: zamonaviy ta‘lim, interfaol metod, sinfdan tashqari o‘qish dasturi, tamoyillar, o‘zbek bolalar yozuvchilari, hikoya, ertak, "Uch og‘ayni botirlar", "Zumrad va Qimmat", "Egri va To‘g‘ri", sinfdan tashqari o‘qishga rahbarlik.

Ключевые слова: современное образование, интерактивный метод, программа внеклассного чтения, принципы, узбекские детские писатели, повесть, сказка, «Три брата-богатыря», «Изумруд и драгоценный», «Эгри и То ‘гри». , руководство по обучению вне класса.

Key words: modern education, interactive method, out-of-class reading program, principles, Uzbek children’s writers, story, fairy tale, «Three brothers heroes», «Emerald and Precious», «Egri and To» ‘g‘ri’, guidance for studying outside the classroom.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning: "Farzandlarimizning qobiliyatini ro‘yobga chiqarishga bolalikdan e‘tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko‘plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar yetishib chiqadi"[1.8], - deya ta‘kidlaganlari bejiz emas. Zero, mamlakatimizda ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan barcha tadbirlar, qabul qilinayotgan hujjatlardan ko‘zlangan asosiy maqsad yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashga qaratilgan. Bu vazifani amalga oshirishda umumta‘lim maktablari o‘qituvchilari yetakchilik qilib, ular zamon talablari doirasidagi ta‘limni tashkil qilishlari talab etiladi. Ko‘rinadiki, boshlang‘ich sinflarda sinfdan tashqari o‘qish darslarini tashkil etishga kompetensiyaviy yondashuv ham ushbu vazifani amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ma‘lumki, umumta‘lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida sinfdan tashqari o‘qish dasturining mazmuniga ko‘ra ta‘limning har bir bosqichida ikki-asosiy bo‘limga ajratiladi.

Boshlang‘ich sinflarda sinfdan tashqari o‘qish uchun kitob tanlashda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:



1. Kitob tanlashda tarbiyaviy magsad ko'zda tutiladi. Bunda o'quvchilarga vatanimiz o'tmishi, mustagillik uchun kurash, xalq gahramonlari, xalqimiz turmushi haqidagi, oilada, maktabda va jamoat joylarida o'zaro munosabatlarda yuzaga keladigan axloqiy muammolar haqidagi, tabiat va uni asrab-avaylash haqidagi kitoblar tavsiya etiladi.

2. Kitob tanlashda asarlar janri va mavzusining xilma-xilligi e'tiborga olinadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar, asosan, hikoyalar, ertaklar, she'rlar, topishmoqlar, maqollarni o'qishga qiziqqanlari uchun shu janrdagi asarlar tanlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. Kitobning o'quvchilar yoshi va saviyasiga mosligi hisobga olinadi. 1- sinfda kichik hikoya va ertaklarni o'qish tavsiya etilsa, 2-4- sinflarda mavzular doirasi kengaytirilib, kundalik turmushda ro'y berayotgan turli vogealar tasvirlangan asarlar, gazeta va jurnallardagi kichik hajmli xabarlarini o'qish ham tavsiya etilishi mumkin.

4. Kitob tanlashda o'quvchilarning shaxsiy giziqishi va mustaqil o'qishi hisobga olinadi. Bunda o'quvchilarning qaysi mavzudagi va janrdagi asarlarni o'qishga qiziqishlari o'zlaridan so'raladi. Ular tarixiy, fantastik, sarguzasht asarlarni o'qishga giziqishlarini aytadilar. O'qituvchi o'zi ham shu turdagi asarlardan parchalar o'qib berib, ularning qiziqishlarini aniqlaydi. Kitoblar ko'rgazmasi orqali ham o'quvchilarni biror mavzuga qiziqtirish lozim. Ko'rgazmadagi asarlardan parchalar o'qish tavsiya etiladi va ularni qiziqtirgan vogealar hikoya qildiriladi.

5. Kitob tanlashda mavsumiy tamoyilga amal qilinadi.

Sinfdan tashqari o'qish uchun asar tanlashda kuz, qish, bahor, yoz maysumi; tarixiy sanalar; yozuvchi va shoirlarning tavallud sanalari ham hisobga olinadi.

6. Kitob tanlashda sinfda o'qish darslari mavzusi bilan mazmunan bog'lanishga amal qilinadi. Ya'ni sinfda o'qish darslarida o'rganilayotgan bo'limlar mazmuni bilan bog'liq asarlar tanlashga e'tibor garatiladi.

7. Sinfdan tashqari o'qish uchun o'zbek bolalar yozuvchilari, gardosh xalqlar adiblari, xorijiy bolalar yozuvchilari asarlari, shuningdek, bolalarbop mumtoz adabiyot namunalaridan tanlash tavsiya etiladi [2.399].

Sinfdan tashqari o'qishga rahbarlikning asosiy shakli maxsus sinfdan tashqari o'qish darslardir. Bunday darslar erkin dars hisoblanadi. Zero, sinfdan tashqari o'qish darslarida o'quvchilarning kitobxonlik giziqishlari, bilim doirasi, estetik taassuroti, badiiy obrazlarni idrok etishi, ijodiy gobiliyati rivojlanadi va faol kitobxonga xos ko'nikma va malakalar shakllanadi.

Sinfdan tashqari o'qish darslari o'quvchilarning faolligini oshirishga qaratiladi, shuning uchun ularning turlari juda xilma xil bo'ladi. Har bir dars o'qituvchi va o'quvchining ijodi hisoblanadi va darsda qanchalik xilma-xillikka, hayotiylikka erishilsa, maqsadga erishish oson kechadi.

Sinfdan tashqari o'qish va qiroatxonlik savodlari 1-sinfda haftada 1 marta o'tkaziladi Ya'ni, savodga o'rgatish darslarining 20 daqiqasida



bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtiriladi. Maqsad kichik yoshdagi bolalarda kitobga mehr uyg'otish, mustaqil uquqlarini paydo qilishdir. Asosan, bu sinf o'quvchilariga kitob bilan muomala qilish, kitob o'qish qoidalari, kitobni asrash, asar qahramonlarining xatti - harakatlarini kuzatish, ijobiy tomonlarni o'rganish, ijodiy yondashgan holda qayta hikoya qilib berish, bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga o'rgatishdan iboratdir. Bu sinf o'quvchilari uchun asosan, rasmlarga boy kitoblar tanlanadi. O'qituvchi bolalarning histuyg'ularini o'stiradigan kitoblarni o'qib berish orqali mustaqil mamlakatimiz, uning go'zal shaharlari, qishloqlari, milliy urf-odatlarini, qadriyatlarini, o'tmishi, insonlarning orzu-istaklari bilan tanishtiradi. O'quvchilarda bilimga havas uyg'otadi. 2-sinfda o'quvchilar kichik hajmdagi badiiy asarlarni o'qituvchining yordami va topshirig'i asosida mustaqil o'qishga o'tadilar. Bu sinfda 2 haftada bir marta sinfdan tashqari o'qish darslari o'tkaziladi. Ona-Vatan va ota-bobolar jasorati, o'simliklar, qushlar hamda hayvonlar haqidagi asarlarini o'qituvchi topib, tanlab o'quvchilarga o'qish uchun tavsiya qiladi. 3- 4-sinflarda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida o'quvchilarning mustaqil o'qishlari uchun kishilarning hayoti, yorqin tasvirlardan, ularning ma'naviy-axloqiy turmush tarzi aks ettirilgan badiiy va ilmiy-ommobop asarlar tavsiya etiladi. 3 – 4 - sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslari ikki haftada bir marta o'tkaziladi. Bu sinflarda o'qituvchi sinf kutubxonasiga kerakli bo'lgan o'quvchilar yoshiga mos kitoblarni to'plashni davom ettiradi. Bunda o'qituvchi va o'quvchilar hamkorlikda ish olib boradilar. Zero, badiiy va ilmiy-ommabop asarlar mustaqil ravishda va izchil o'qib borilsagina, ular o'quvchilarning dunyoqarashlarini shakllantirishga, kengaytirishga xizmat qiladi. Sinfdan tashqari o'qish o'quvchilarda a ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, bog'lanishli nutqni o'stirishga, adabiy-estetik tafakkurlarini yuksaltirishga xizmat qiladi. Bolalar adabiyoti, avvalo, o'zining qiziqarli mazmuni, badiiy o'brazlarning go'zalligi, tilining ifodaliligi, she'riy so'zlarning musiqaviyligi bilan bolalarga quvonch baxsh etadi. Ayni vaqtda u bolalarga tarbiyaviy ta'sir ham ko'rsatadi. Bolalar adabiyoti o'quvchilarga jonajon o'lka, tabiyatini, kishilarning mehnati, hayoti, ularning amalga oshirayotgan bunyodkorlik ishlari va ko'rsatayotgan qahramonliklari, bolalar hayotidan olingan voqelikni, ularning o'yinlarini tushunishga o'rgatadi. Xalqimizning tarixi, uning urf-odatlarini, moddiy va ma'naviy boyliklari, barcha orzu - istaklari yillar davomida yaratilgan ertaklarda saqlanib kelmoqda. Kishilar o'z orzu - istaklarini yosh avlodlarda ko'rishni xohlaganlar. Shu sababdan ham o'quvchilarga ertaklarni ko'plab o'qish tavsiya qilinadi. Negaki, ertak o'qigan bolalar qiyinchilikni yengishga, botir, jasur bo'lishga intiladilar. O'quvchilar yer yuzidagi barcha insonlarning men bir bo'lagiman, men o'z xalqimga qilayotgan ishlarim bilan ularga munosib bo'lib ulg'ayishim kerak, desalargina o'z xalqining munosib farzandlari bo'la oladilar. Ko'rinadiki, ertaklar yosh avlodni ana shu ruhda tarbiylaydigan baynalminal badiiy quroldir."Uch



og‘ayni botirlar”, ”Zumrad va Qimmat”, ”Egri va To‘g‘ri” [3.58], “Qarg‘a va paxta”[4.35], “Tulki va she‘r” [5.100] kabi bir qator ertaklar o‘quvchilarning sevimli asarlaridir. O‘quvchilar bu ertaklardan kishi o‘z mehnatiga ishonib yashashi kerakligi, birovning boyligiga hasad bilan qaramaslikni o‘qituvchi yordamida tushinib yetadilar.

“Ur to‘qmoq”[6.88] ertagining bola xarakteri shakllanishida alohida o‘rni bor. Ya‘ni ertak yaxshiga-yaxshi, yomonga-yomon bo‘lish kerak degan muhim qoidani o‘rtaga tashlaydi. Haqiqatan ham xalqimizning “Qaynar xumcha”, ”Ochil dasturxon”larini zo‘ravonlik bilan tortib oladigan kishilarga nisbatan “Ur to‘qmoq”larni qo‘llash zarurligi uqtiriladi.

Sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlari o‘qish darslari bilan bog‘lab olib boriladi. o‘qituvchi rahbarligi ostida o‘quvchilar avvalo, mavzuga oid bir necha badiiy asarlar bilan tanishsalar, so‘ngra ularning qiziqishlariga yaqin har xil mualliflarning bir mavzuga doir kitoblarini mustaqil tanlab olishga o‘tilgani ma‘qul. Bunga, asosan, o‘qituvchi 1-2- sinflarda o‘quvchilar bilan maktab kutubxonasiga, 3-4- sinflardan boshlab tuman yoki shahar kutubxonasiga sayohat uyushtirib, bolalar adabiyoti bilan muntazam tanishtirib boradilar. Shuningdek, o‘qituvchi bolalarga gazeta va jurnallardan ham ertak, hikoyalar o‘qishga yordam berib borishi lozim.

Binobarin, boshlang‘ich ta‘limda sinfdan tashqari o‘qish darslari, o‘qish samaradorligini oshirishning eng qulay usulidir. Sinfdan va sinfdan tashqari o‘qish darslari boshlang‘ich sinflarda o‘tiladigan barcha fan dasturlarining bo‘limlari bilan bevosita bog‘liq.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Istiqbolli loyihalar xalqimiz farovonligiga xizmat qilmoqda. “Xalq so‘zi”. 2018-yil 8 dekabr № 253.
2. Matchonov S., Bakiyeva H., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Xolboyeva G. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. Darslik. Toshkent, 399 – bet.
3. Ma‘qulova B., Nasriddinova D. Kitobim – oftobim 2: Sinfdan tashqari o‘qish kitobi. – T.: Yangiyo‘l Poligraf Servis, 2018, 58- bet.
4. Toirova M.E. O‘qish savodxonligi. 4 – sinf, 1-qism. Darslik. Toshkent, 2023, 35-38 – betlar
5. Mavlonova K., Quronov S., Tursunov Sh., Hakimova N., Baxtoyorova H. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 3 –sinf uchun darslik, 2 – qism, Toshkent, 2022, 100- bet.
6. Nasriddinova D. Kitobim – oftobim 3: sinfdan tashqari o‘qish kitobi. – T.: Yangiyo‘l Poligraf Servis, 2017.- 88-b.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada boshlang‘ich ta‘limda sinfdan tashqari o‘qish darslarini tashkil etishning zamonaviy usullari, tamoyillari va o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishdagi o‘rni haqida fikr yuritiladi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются современные методы и принципы организации внеклассных занятий по чтению в начальной школе и их роль в формировании культуры чтения у учащихся.

SUMMARY

This article discusses the modern methods and principles of organizing extracurricular reading classes in primary education and their role in the formation of reading culture in students.